

## TOVLAMACHILIK JINOYATLARINING OLDINI OLISHDA IIOLARI PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI FAOLIYATI TUSHUNCHASI

**Botirov Aslbek Bahodir o'g'li**

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,  
317 guruh kursanti.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tovlamachilik jinoyatining tushunchasi kriminogen holatga ta'siri, tovlamachilik jinoyatlarining oldini olish bo'yicha IIolari profilaktika inspektorlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari, funksiya va vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda xorijiy tajribalar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tovlamachilik jinoyati, huquqbuzarlik, tovlamachilikdan jabrlangan shaxs, qonuniy javobgarlik, islohotlar.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается влияние понятия преступления вымогательства на криминогенную ситуацию, основные направления деятельности, функции и задачи инспекторов по профилактике МВД по предупреждению преступлений вымогательства, механизмы их реализация, а также зарубежный опыт.*

**Ключевые слова:** *преступление вымогательства, правонарушение, лицо, пострадавшее от вымогательства, законная ответственность, реформы.*

**Annotation:** *This article examines the impact of the concept of extortion crimes on the criminogenic situation, the main directions of activity, functions, and tasks of prevention inspectors of the Ministry of Internal Affairs in preventing extortion crimes, the mechanisms for their implementation, as well as foreign experience.*

**Keywords:** *extortion crime, offense, victim of extortion, legal responsibility, reforms.*

Qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy omili bu huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish va huquqbuzarliklarning sabablari bilan kurashish emas, balki unga olib keluvchi shart-sharoitlar, omillarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishdan iboratdir. Jamiyatda huquq va tartibni saqlash, xavfsizlik muhitini ta'minlash davlat va jamoat uchun ustuvor vazifalardan biridir. Har qanday jinoyat turining tarqalishi, jumladan tovlamachilikning kengayishi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tovlamachilik — shaxslarning qo'rqitish, bosim o'tkazish orqali moddiy manfaatlarini talab qilishi bilan izohlanadigan jinoyat bo'lib, uning oldini olish choralari doimiy ravishda takomillashtirilishi zarur. Bu jarayonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari faoliyati muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada

tovlamachilik jinoyatlarining oldini olishda profilaktika inspektorlarining faoliyatini tashkil etish masalalari, ularning vazifalari, amalga oshirish mexanizmlari hamda xorijiy tajribalardan olingan saboqlar tahlil qilinadi.

Tovlamachilik jinoyatining xususiyati - unda shaxslarga nisbatan qo'rqitish, zo'ravonlik yoki bosim ko'rsatish orqali mol-mulk yoki pul talab qilinishida namoyon bo'ladi. Bunday jinoyatlar faqatgina jabrlanuvchilarga moddiy zarar yetkazish bilan cheklanmay, balki jamiyatda xavf va beqarorlik muhitini yaratadi. Bu esa ijtimoiy ishonchning pasayishiga, insonlar o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga va iqtisodiy faoliyatning susayishiga olib keladi. Shuning uchun tovlamachilik jinoyatlarining oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biridir.

Hududlarda sodir etilayotgan jinoyatlardan biri bo'lgan mulkiy turdagi tovlamachilik jinoyati haqida to'xtalib o'tishimiz lozim. Tovlamachilik jinoyatining firibgarlikdan qanday farqli jihatlari bor tushunib olishimiz shart. Ushbu jinoyat o'zining sodir etilish usuli, obyekti hamda obyektiv tomonlari va shaxsning motiv va maqsadlari bilan ajralib turadi quyida shu haqida so'z boradi. Avvalo, tovlamachilik jinoyatiga ta'rif berib o'tishimiz lozim: "Tovlamachilik - ya'ni jabrlanuvchiga yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchining axborot resursini yo'q qilish, o'zgartirish, egallab olish yoki to'sib qo'yish yoki jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish, uni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish bilan qo'rqitib o'zgadan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o'zining mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish". Tovlamachilikning jinoiy huquqiy jihatlarni tahlil qilish, albatta, mamlakatimiz milliy-huquqiy manbalaridagi ushbu jinoyatning nazariy-huquqiy tushunchasiga, tarkibiga, elementlariga, shuningdek, boshqa turdagi o'xshash jinoyatlardan xususan firibgarlik farqli tomonlariga oid masalalarini tadqiq qilishni taqozo etadi. Tahlillar jinoyat kodeksining 165-moddasidagi "Tovlamachilik" jinoyatiga oid tushuncha bu boradagi tushunchalar mazmunini to'liq o'z ichiga qamrab olmaganligini ko'rsatmoqda. Chunki o'zbek tilining izohli lug'atida a) tovlamachi kishilarni tovlab, laqillatib, qo'rqitib kun ko'ruvchi firibgar; b) tovlamoq aldab laqillatib, qo'rqitib, biror narsani yokipulini olmoq, yulmoq, anoyi qilmoq, firib bermoq degan ma'nolarda keladi. Ta'kidlash joizki tovlamachilikka nisbatan firibgarlikning ko'rsatkichlari ham bir muncha yuqori hisoblanadi. Firibgarlik jinoyatining sodir etish usullari tovlamachilikdan farq qiladi. Aldash yoki ishonchini suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish haqida gapirilganda, eng avvalo, uning mazmunini tashkil etuvchi – "firibgarlik" atamasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim tushunchalarni ham tahlil qilish zarur. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki firibgarlik jinoyatini sodir etishda jinoyatchilar tomonidan qo'llaniladigan yagona usul mavjud emas, balki ular o'z faoliyatlarida bir qator motiv va maqsad bilan bog'liq asosan ishonchni suiste'mol qilish bilan bog'liq usullarni

qo'llashga harakat qilishadi. Shuningdek, firibgarlikning sodir etish usullarini o'rganish ham huquqni muhofaza qiluvchi organlarda unga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan mexanizmlarni yaratish va harakatga keltirish orqali fuqarolarni ogohlikka chaqirish hamda hushyorligini oshirish uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Bugungi kunda ushbu jinoyatning farqli jihatlari borasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari — jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan tuzilmalardir. Ular asosan jamoat bilan muloqot qilish, huquqiy targ'ibot olib borish, xavfli hududlarni nazorat qilish va jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiluvchi turli chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tovlamachilik jinoyatlarining oldini olishda profilaktika inspektorlari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

Jamoatchilik bilan doimiy aloqani o'rnatish, odamlarni huquqiy savodxonlikka o'rgatish;

Tovlamachilik holatlari ehtimoli bo'lgan hududlarda muntazam monitoring va kuzatuv olib borish;

Jabrlanuvchilarga huquqiy yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish;

Mahalla fuqarolari bilan birgalikda profilaktika chora-tadbirlarini tashkil etish;

Jinoyatlar haqidagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan yig'ish va tegishli choralarni ko'rish.

Profilaktika inspektorlari faoliyatining samaradorligini oshirish uchun ularning ish tartibi va tashkilotiga oid muayyan mexanizmlar joriy etilishi lozim.

Profilaktika inspektorlarining faoliyatining samaradorligini oshirish va tovlamachilik jinoyatlarining oldini olishda ushbu faoliyatni tizimli ravishda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bir necha asosiy mexanizmlar va yondashuvlar joriy etilishi lozim.

Profilaktika inspektorlari ishida jinoyatchilik holatlarini o'z vaqtida va aniq aniqlash muhimdir. Shu bois, maxalliy hududlarda tovlamachilik va boshqa huquqbuzarliklarga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ish, tahlil qilish va prognoz qilish uchun maxsus monitoring tizimi yaratish zarur. Bu tizim axborot texnologiyalari, mobil ilovalar, elektron ma'lumot bazalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, jinoyatchilikning yangi xatari va tendensiyalari o'z vaqtida aniqlanib, profilaktika choralari tez va samarali qo'llaniladi.

Tovlamachilik jinoyatlari ko'pincha jamoatchilik ishtirokisiz to'g'ri aniqlanmaydi yoki yetarlicha e'tibor berilmaydi. Shuning uchun profilaktika inspektorlari jamoat bilan doimiy muloqotda bo'lishi, mahalla va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishlari kerak. Bunda huquqiy targ'ibot tadbirlari, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'yicha treninglar, uchrashuvlar va seminarlar tashkil etish muhimdir. Jamoatchilik huquqiy madaniyatini oshirish, odamlarni jinoyatlarga qarshi kurashishga faol jalb etish profilaktika ishlarining samaradorligini oshiradi.



Profilaktika inspektorlari o'z vazifalarini samarali bajarishlari uchun doimiy ravishda kasbiy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishi kerak. Buning uchun maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi lozim. Zamonaviy jinoyatchilik tendensiyalari, profilaktika usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va psixologik metodlar bo'yicha bilimlarni yangilab borish inspektorlarning ish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Samarali profilaktika ishini ta'minlashda moddiy-texnik ta'minot katta ahamiyatga ega. Profilaktika inspektorlari zarur transport vositalari, aloqa vositalari, kompyuterlar va zamonaviy dasturiy ta'minot bilan ta'minlanishi lozim. Shu bilan birga, axborotlarni tez va xavfsiz almashish uchun maxsus elektron tizimlar ishga tushirilishi zarur. Bu vositalar inspektorlarga tezkor harakat qilish, hududlarning har tomonlama monitoringini amalga oshirish imkonini beradi.

Profilaktika ishlarini yanada samarali qilish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan keng foydalanish lozim. Masalan, elektron murojaatlar qabul qilish tizimlari, mobil ilovalar orqali jamoatchilik fikrini to'plash, jinoyatchilikni monitoring qilish uchun maxsus ma'lumotlar bazalari va avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilishi mumkin. Bu jarayonlar inspektorlarning ish yuklarini yengillashtiradi hamda jinoyatlarni erta aniqlashga yordam beradi.

Jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy qilish orqali jamoat fuqarolarining huquqiy bilimlarini oshirish va ularni jinoyatlarga qarshi kurashishga faol jalb etish mumkin. Buning uchun mahalla fuqarolar yig'ini, nodavlat tashkilotlar va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda xavfli hududlarda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilishi muhim. Profilaktika inspektorlari va jamoatchilik o'rtasidagi ishonchli hamkorlik jinoyatchilikning oldini olishda katta rol o'ynaydi.

Dunyo tajribasidan foydalanish profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Yevropa va AQShda profilaktika inspektorlari jamoat bilan yaqin aloqada bo'lib, huquqiy targ'ibot va xavfsizlik tadbirlarini samarali olib boradilar. Ular zamonaviy texnologiyalar, raqamli axborot tizimlari va psixologik usullardan keng foydalanadilar. O'zbekiston sharoitlarida ham ushbu tajribalarni joriy etish, ularni milliy xususiyatlar va qonunchilikka muvofiqlashtirish zarur.

Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va taxdidlar, avvalo, qo'shni mamlakatlarda bo'lib turgan nizoli holatlar, shuningdek, maishiy turmush sharoitida sodir etilayotgan shaxsning hayoti va sog'lig'i, davlat va jamoat mulki, jamoat xavfsizligi, boshqaruvning belgilangan tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning salmog'i oshib borayotgan bir vaqtda tovlamachilik jinoyatining ham sodir etilishi hamda latentlashuvi bilan bog'liq muammolarning kuchayib borayotganligi jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul tuzilmalar oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish, shuningdek, mazkur turdagi jinoyatlarning sabab-sharoitlarini o'z vaqtida aniqlash va ularga barham berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'ymokda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmokdaki, globallashtirish va vaziyat tez o'zgaruvchan sharoitda huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlariga bo'lgan jamiyat ehtiyoji, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi", "Taraqqiyot" va "O'zbekistan - 2030" strategiyalarida bu sohada belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish talablari tovlamachilik profilaktikasini takomillashtirish hamda uni raqamlashtirishni taqozo etmoqda.

Xorijiy davlatlardagi tovlamachilik profilaktikasiga oid: a) individual yoki ijtimoiy guruxdar darajasidagi kriminallashtirish va viktimallashtirishning ob'ektiv hamda sub'ektiv omillarini aniqlash hamda bartaraf etishga; b) aholining alohida toifalari (tovlamachilikni sodir etishga va undan jabrlanishga moyil) o'rtasida tushuntirish ishlari, huquqiy targ'ibotni amalga oshirishga; v) davlatning kompensatsiya va zararni qoplash tizimini nazarda tutgan holda tovlamachilikdan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish yo'nalishlari kabilardan iborat chora- tadbirlarni milliy tizimga keng joriy etish tavsiya etiladi.

Xorijiy davlatlardagi tovlamachilik jinoyatlarining profilaktikasiga oid tajribani uch guruhga: birinchi guruhga tovlamachilikning oldini olishda asosiy e'tibor keng jamoatchilik bilan hamkorlikka tayanishni (Yaponiya, Germaniya, Isroil); ikkinchi guruhga tovlamachilikning oldini olishda ustuvorlikning huquqiy targ'ibotga, ya'ni mazkur yo'nalishda zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni (Rossiya, Angliya va Qozog'iston); uchinchi guruhga tovlamachilikning barvaqt oldini olish va ular sodir etilishini minimallashtirishga qaratilgan kompleks chora- tadbirlarni o'zida aks ettirgan maxsus dasturlar asosida profilaktika ishlarini tashkil etishni (AQSh, Kanada, Germaniya) milliy amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda tovlamachilik jinoyatlarining oldini olish va uning sabablarini bartaraf etish O'zbekistonda sud-huquq tizimi va jamiyatning muhim vazifasidir. Jahon nazariyalari va xalqaro tajriba asosida qonunchilikni takomillashtirish, texnologiyalardan foydalanish va profilaktika choralarini kuchaytirish orqali bu muammo bilan samarali kurashish mumkin. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni davom ettirib, aholining huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirish ushbu sohadagi mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

### **ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз тўрт йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 14 ноябрдаги "Болаларни зўравонликнинг барча шаклларида ҳимоя қилиш тўғрисида"ги ЎРҚ-996-сон қонуни.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги «Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўғин сифатида ишлашни таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида» ПФ-209-сон Фармони.

4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.

6. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.

7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.

9. Tashtemirov A., Po'latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.

10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.

11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.